



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING B U Y R U G‘ I

13.05.2022

89-um-son

### O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida volontyorlik faoliyatini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi “Volontyorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 169-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

#### B U Y U R A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi “Volontyorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 169-son qaroriga (keyingi o‘rinlarda qaror) asosan:

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari va funksiyalarini bajarishda volontyorlik faoliyati joriy etilganligi;

2022-yil 1-iyundan boshlab O‘zbekiston yoshlar portali negizida yaratilgan volontyorlar elektron platformasi ishga tushirilishi;

davlat organlarining ularning vazifalari va funksiyalarini bajarishda volontyorlikni joriy etish bilan bog‘liq faoliyati Yoshlar ishlari agentligi tomonidan baholanib, baholash natijalariga asosan ularning har choraklik reyting ko‘rsatkichlari volontyorlar platformasida e‘lon qilib borilishi belgilanganligi;

bu borada davlat organlariga aniq vazifa va yo‘nalishlar, jumladan:

davlat organlariga ularning faoliyatini samarali va tejamli shaklda amalga oshirishga ko‘maklashuvchi volontyorlik guruhlarini tuzilishi hamda ularga volontyorlar ushbu davlat organlarida tashkil etiladigan komissiya tomonidan suhbat asosida tanlab olinishi;

davlat organlarida tuziladigan volontyorlik guruhlarining faol a‘zolari davlat organlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari doirasida hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan rag‘batlantirib borilishi;

har bir davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatiga volontyorlik tashkilotlarining tashabbuskor vakillari jalb qilinishi belgilanligi inobatga olinsin.

2. Qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida (keyingi o‘rinlarda vazirlik) volontyorlik faoliyati joriy etilsin hamda quyidagilar volontyorlar jalb etiladigan yo‘nalishlar etib belgilansin:

huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish;

huquqiy axborotni tarqatish;

o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshira olmaydigan shaxslarga

huquqiy maslahatlar berish;

ommaviy sport, madaniy tadbirlarni va boshqa jamoat tadbirlarini tashkil etish bilan bog'liq milliy hamda xalqaro ahamiyatga molik tadbirlarni o'tkazish;

davra suhbatlari, press-konferensiyalar, seminarlar, teledasturlar (onlayn tadbirlar) tashkil qilish va o'tkazish;

turli ijtimoiy loyihalar, imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun hayriya tadbirlari hamda boshqa huquqiy aksiyalar (nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda) tashkil qilish.

**3.** Adliya vazirligining vazifalari va funksiyalarini volontyorlik orqali nisbatan samarali va tejamli shaklda amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik faoliyatini samarali va tejamli shaklda amalga oshirishga ko'maklashuvchi Adliya vazirligi huzurida volontyorlik guruhi tuzilsin hamda ushbu guruhga volontyorlar 2- ilovaga muvofiq tarkibdagi komissiya tomonidan suhbat asosida tanlab olinsin.

**4.** Adliya vazirining Yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi (N.Parpixov)ga volontyorlar bilan ishlash vakolati yuklatilsin va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

vazirlik faoliyati bilan bog'liq volontyorlik dasturlarini tayyorlash va tasdiqlash uchun kiritish;

vazirlik tomonidan volontyorlar ishtirokida ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlar, loyihalar va aksiyalar o'tkazilishini tashkil etish;

jalb etiladigan volontyorlarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash, shuningdek, volontyorlar tomonidan qaror bilan tasdiqlangan nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

vazirlikning vazifalari va funksiyalarini volontyorlik orqali samarali va tejamli shaklda amalga oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

vazirlik faoliyatini amalga oshirishga jalb etiladigan volontyorlarni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritish.

**5.** Volontyorlarning jalb etilishi va ularning faoliyati samarali tashkil qilinishiga vazirning Yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi va vazirlikning volontyorlar jalb etiladigan yo'nalishiga mas'ul hisoblangan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari shaxsan mas'ul va javobgar ekanligi ko'rsatib o'tilsin.

**6.** Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi (A. Buriyev) ushbu buyruqni vazirlikning manfaatdor tarkibiy tuzilmalariga belgilangan tartibda yetkazilishini ta'minlasin.

**7.** Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari X.Meliyev zimmasiga yuklansin.

**Adliya vaziri**



**R.DAVLETOV**

Toshkent shahar

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining vazifalari va funksiyalarini  
volontyorlik orqali nisbatan samarali va tejamli shaklda amalga  
oshirish tartibi to‘g‘risida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining (keyingi o‘rinlarda vazirlik) vazifalari va funksiyalarini volontyorlik orqali nisbatan samarali va tejamli shaklda amalga oshirish tartibini belgilaydi.

**2-bob. Volontyorlarni vazirlik faoliyatiga jalb etish**

2. Vazirlikning vazifa va funksiyalarini volontyorlik orqali nisbatan samarali va tejamkor shaklda bajarish ushbu Nizom ilovasidagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Voyaga yetgan, volontyor sifatida jalb etilayotgan tegishli soha bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar vazirlik faoliyatiga volontyor sifatida jalb etilishi mumkin.

3. Quyidagi fuqarolarning vazirlik faoliyatiga volontyor sifatida jalb etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi:

muomalaga layoqati belgilangan tartibda cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan;

volontyor sifatida jalb etilayotgan tegishli soha bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lmagan;

vazirlik xodimi (korporativ volontyorlik bundan mustasno);

o‘ziga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan, shuningdek, qasddan jinoyat sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan;

jinoiy jazoni o‘tayotgan;

belgilangan vazifalarni amalga oshirishga monelik qiladigan kasalligi yoki jismoniy nuqsoni mavjud bo‘lgan;

haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar;

diniy tashkilotlarning professional xizmatchilari.

4. Professional va oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan fuqarolar ushbu ta‘lim muassasalaridagi ta‘limdan tashqari vaqtlarda volontyorlar guruhi tarkibida volontyorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

5. Adliya vaziri (keyingi o‘rinlarda vazir) tomonidan har yili volontyorlar jalb etiladigan vazirlik faoliyat yo‘nalishlari ro‘yxati tasdiqlanadi.

Bunda, pul mablag‘lari bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi, maxfiy ma‘lumotlarni saqlovchi va ular bilan ishlovchi, inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan, bajarilishi alohida bilim va ko‘nikma talab etadigan vazifalarni amalga oshiruvchi vazirlikning tarkibiy tuzilmalari faoliyatiga volontyorlarning jalb etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Vazirning Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisiga volontyorlar bilan ishlash vakolati yuklanib, quyidagilar uning asosiy vazifalari hisoblanadi:

vazirlik faoliyati bilan bog‘liq volontyorlik dasturlarini tayyorlash va tasdiqlash uchun kiritish;

vazirlik tomonidan volontyorlar ishtirokida ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlar, loyihalar va aksiyalar o‘tkazilishini tashkil etish;

jalb etiladigan volontyorlarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta‘minlash, shuningdek, volontyorlar tomonidan qaror bilan tasdiqlangan nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

vazirlikning vazifalari va funksiyalarini volontyorlik orqali samarali va tejimli shaklda amalga oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

vazirlik faoliyatini amalga oshirishga jalb etiladigan volontyorlarni moddiy va ma‘naviy jihatdan rag‘batlantirish to‘g‘risida takliflar kiritish.

6. Vazirlikning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida doimiy ravishda volontyorlarning jalb etilishi bo‘yicha tanlov o‘tkazilishi haqida e‘lon berib boriladi.

Tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa quyidagilar ko‘rsatiladi:

volontyorlar jalb etiladigan faoliyat yo‘nalishlari;

tanlovda ishtirok etuvchilarga qo‘yiladigan talblar;

tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar va ularni taqdim etish tartibi;

bog‘lanish uchun telefon raqam va elektron pochta manzili;

tanlov o‘tkaziladigan joy.

7. Volontyorlarni saralab olish bo‘yicha tanlov vazirlikda belgilangan tartibda tuziladigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Tanlov komissiyasi vazirlikning besh nafar mas‘ul xodimlaridan iborat tarkibda tuzilib, vazir tomonidan tasdiqlanadi. Unga vazirning Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi raislik qiladi. Vazirlikning Inson resurslari boshqarmasi xodimlaridan biri komissiya mas‘ul kotibi hisoblanadi.

8. Tanlov suhbat asosida o‘tkaziladi.

Komissiya tomonidan talabgorning vazirlik faoliyatiga oid bilim, ko‘nikma va umumiy tushunchalarini aniqlash, ularning dunyoqarashi, kasbiy va shaxsiy xususiyatlariga baho berish maqsadida suhbat tashkil qilinadi.

Suhbat jarayonlari audio va videoyozuvlarda qayd etib boriladi.

O‘tkazilgan suhbat natijasida komissiya talabgorga nisbatan quyidagi xulosalardan birini tasdiqlaydi:

“Suhbatdan o‘tdi volontyor sifatida jalb etishga tavsiya qilindi”;

“Suhbatdan o‘tmadi volontyor sifatida jalb etishga tavsiya qilinmadi”.

Suhbatning ijobiy natijasiga ko‘ra volontyor sifatida jalb etishga tavsiya qilingan talabgorlar Adliya vazirligi huzuridagi volontyorlar guruhiga (keyingi o‘rinlarda — volontyorlar guruhi) qabul qilinadi.

### **3-bob. Vazirlik faoliyatiga jalb etilgan volontyorlarni hisobga olish**

9. Vazirning buyrug‘iga ko‘ra tanlov natijalariga asosan tanlab olingan volontyorlardan iborat volontyorlar guruhi tashkil etiladi.

10. Volontyorlar guruhiga kiritilgan volontyorlar komissiya mas’ul kotibi tomonidan O‘zbekiston yoshlar portali negizida yaratilgan volontyorlar elektron platformasi (keyingi o‘rinlarda – elektron platforma) orqali hisobga qo‘yiladi.

11. Volontyorlarni elektron platforma orqali hisobga qo‘yishda quyidagilar ko‘rsatiladi:

volontyorning familiyasi, ismi, otasining ismi;

tug‘ilgan sanasi;

pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi ma’lumotlari;

volontyorlar guruhida faoliyatini boshlagan sana;

volontyorlik faoliyatini amalga oshirish yo‘nalishi.

12. Volontyorning volontyorlar guruhida faoliyat yuritgan davri doimiy ravishda elektron platformada aks ettiriladi.

Bunda, volontyor tomonidan elektron platforma orqali volontyorlar guruhida faoliyat yuritgan davri to‘g‘risida har qanday paytda QR-kod (matrik shtrixli kod) qo‘yilgan ma’lumotnomani yuklab olish imkoniyati yaratiladi.

### **4-bob. Volontyorlar ishini tashkil etish**

13. Har yili vazirning Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi tomonidan manfaatdor tarkibiy bo‘linmalar bilan birgalikda volontyorlik dasturi ishlab chiqilib, vazir buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Volontyorlik dasturida:

vazirlik tomonidan o‘tkaziladigan, jamoat uchun foydali bo‘lgan vazifalarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar va ularni amalga oshirish orqali kutilayotgan natijalar;

vazirlikning volontyorlar jalb etiladigan faoliyat yo‘nalishlari ko‘rsatiladi.

Volontyorlik dasturida qonunchilikda belgilangan boshqa chora-tadbirlar ham ko‘rsatilishi mumkin.

14. Volontyorlar ishini tashkil etish vazirning Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi, vazirlikning volontyorlar jalb etiladigan faoliyat yo‘nalishiga mas‘ul hisoblangan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda, vazirning Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi va tegishli tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan volontyorlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatiladi, ular o‘rtasida ishlar taqsimlanadi, har bir volontyorning ish hajmi belgilanadi, ishning ular tomonidan bajarilishini nazorat qilinadi, boshqa davlat organlari huzuridagi volontyorlar guruhlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi.

### **5-bob. Volontyorlarning huquq va majburiyatlari**

15. Volontyorlik guruhi a‘zosi bo‘lgan volontyor vazirlik faoliyatiga ko‘maklashish doirasida quyidagi huquqlarga ega:

vazirlikda o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat yo‘nalishini erkin tanlash;

agar volontyor hamda vazirlik o‘rtasida tuzilgan volontyorlik shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, vazirlikdagi volontyorlik faoliyatini har qanday vaqtda erkin ravishda to‘xtatish;

vazirlikka o‘z loyiha va dasturlarini taklif qilish, ularni amalga oshirishda yordam olish;

vazirning Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisidan, o‘zi biriktirilgan tarkibiy bo‘linma rahbari va xodimlaridan amalga oshiriladigan volontyorlik faoliyati to‘g‘risida ishonchli axborot olish;

volontyorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan volontyorlik aksiyalari va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

vazirlikdan volontyorlik faoliyati davomida yuzaga kelgan yo‘l haqi, yashash, ovqatlanish xarajatlari va boshqa xarajatlarning qoplanishini hamda zarurat tug‘ilganda maxsus kiyim-bosh, yakka tartibda himoyalani vositalari, asbob-uskunalar bilan ta‘minlashni talab qilish;

vazirlikdan tavsiyanoma tusidagi xatlarni olish;

xavfli, zararli hamda noqulay omillar bilan bog‘liq ishlarni bajarishga jalb qilinganda vazirlik mablag‘lari hisobidan hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urta qildirish.

16. Volontyorlik guruhi a‘zosi bo‘lgan volontyor vazirlik faoliyatiga ko‘maklashish doirasida quyidagi majburiyatlarga ega bo‘ladi:

volontyorlik faoliyati doirasida uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni aniq, vijdonan va o‘z vaqtida bajarish;

vazirning Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisini yoki bevosita biriktirilgan tarkibiy bo‘linma rahbarini o‘ziga ma‘lum bo‘lib qolgan volontyorlik

faoliyati doirasidagi tadbirlarni amalga oshirishni qiyinlashtiradigan sabablar haqida o'z vaqtida xabardor qilish;

volontyorlik faoliyati doirasida o'ziga ma'lum bo'lgan vazirlik faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni, shuningdek, boshqa volontyorlarning shaxsga doir ma'lumotlarini ularning roziligisiz oshkor qilmaslik;

volontyorlik faoliyati doirasida fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzmaslik, o'z faoliyati bilan uchinchi shaxslarga va atrof muhitga zarar yetkazmaslik;

volontyorlik tadbirlarining boshqa ishtirokchilariga, shu jumladan, hamkorlik olib boriladigan muassasalar (tashkilotlar) xodimlariga hamda boshqa volontyorlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

volontyorlik tadbirlarini o'tkazish jarayonida bevosita biriktirilgan tarkibiy bo'linma rahbari ko'rsatmalariga amal qilish;

o'z faoliyati to'g'risida vazirning Yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisiga hisobot taqdim etib borish;

volontyorlik faoliyati doirasida vazirlikda o'rnatilgan xavfsizlik, texnika, sanitariya-gigiyena va odob-axloq hamda ichki tartib-qoidalariga qat'iy amal qilish;

vazirlik mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

### **6-bob. Vazirlikning huquq va majburiyatlari**

17. Vazirlik o'z faoliyatiga jalb etilgan volontyorlar bilan munosabatda quyidagi huquqlarga ega:

volontyorlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

volontyorlarni jalb qilgan holda volontyorlik aksiyalarini o'tkazish;

volontyorlik guruhi a'zolari orasidan volontyorlarni muvofiqlashtiruvchini tayinlash;

volontyorlik guruhi a'zolarini o'qitish uchun ta'lim faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni jalb etish, maxsus seminarlar, ishchi uchrashuvlar va volontyorlarning uchrashuvlarini o'tkazish;

qonunchilikda belgilangan tartibda volontyorlarni rag'batlantirish, shu jumladan, eng ko'p o'zini ko'rsatgan volontyorlarga tavsiya tusidagi xatlar taqdim etish hamda ularni rag'batlantirish va (yoki) mukofotlash uchun nomzodlarni belgilangan tartibda taqdim etish.

18. Vazirlik o'z faoliyatiga jalb etilgan volontyorlar bilan munosabatda quyidagi majburiyatlarga ega:

volontyorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etish;

volontyorlarni ularning xohish-istagidan tashqari volontyorlik shartnomasida ko'rsatilmagan vazifalarni bajarishga jalb etmaslik;

jalb qilingan volontyor, agar u volontyorlik faoliyati bilan oyiga 20 soatdan ko'proq band bo'lsa, volontyor bilan volontyorlik shartnomasini tuzish;

volontyorga rejalashtirilayotgan hamda amalga oshirilayotgan volontyorlik dasturlari va volontyorlik aksiyalari, ular ishtirokchilarining soni, aksiyalar o'tkaziladigan joy hamda vaqt, ularni o'tkazishga doir talablar to'g'risida axborot taqdim etish, shu jumladan, o'z rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali axborot taqdim etish;

volontyorlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida volontyorlarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, volontyorlarga ularning vazirlik faoliyatiga ko'maklashishi davomida yuzaga kelgan yo'l haqi, yashash, ovqatlanish xarajatlari va boshqa xarajatlarni qoplash hamda zarurat tug'ilganda maxsus kiyim-bosh, yakka tartibda himoyalaniish vositalari, asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

xavfli, zararli hamda noqulay omillar bilan bog'liq ishlarni bajarishga jalb qilinganda o'z mablag'lari hisobidan volontyorlarning hayoti va sog'lig'ini sug'urta qilish.

### **7-bob. Volontyorlik shartnomasi**

19. Vazirlik faoliyatiga jalb etilgan volontyor oyiga 20 soatdan ko'proq volontyorlik faoliyati bilan band bo'lsa, volontyor bilan volontyorlik shartnomasi tuzilishi shart.

Volontyorlik shartnomasi ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ulardan biri vazirlikda, ikkinchisi esa volontyorda saqlanadi.

20. Volontyorlik shartnomasi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

volontyor volontyorlik dasturi, aksiyasi vaqtida amalga oshiradigan faoliyatning tavsifi;

volontyorlik faoliyatini amalga oshirish davri;

ish soatlari va kunlari;

ishonib topshirilgan moddiy qimmatliklarning qiymati ko'rsatilgan holdagi tavsifi;

shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari;

volontyorlarga vazirlik tomonidan beriladigan imtiyozlar;

belgilab qo'yiladigan kasbiy talablar, ijtimoiy ko'nikmalar, rivojlanish manfaatlari, zarur bo'lganda, sog'lig'ining holatiga doir talablar;

taraflarning yetkazilgan zarar uchun javobgarligi;

shartnomani bekor qilish va uni haqiqiy emas deb topish shartlari.

21. Agar volontyorlik shartnomasini bajarish jarayonida volontyorning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni amalga oshirishni qiyinlashtiradigan holatlar taraflarga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuzaga kelsa, shartnoma qayta ko'rib chiqiladi.



22. Agar volontyorlik shartnomasini bajarish jarayonida taraflarga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra shartnomani bundan buyon bajarish mumkin bo'lmay qoladigan holatlar yuzaga kelsa, shartnoma taraflardan birining tashabbusiga ko'ra bekor qilinadi.

23. Volontyorlik shartnomasini bir tomonlama tartibda bekor qilish, agar volontyorlik shartnomasida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, volontyor tomonidan yoki vazirlik tomonidan bu haqida yetti kun oldin dastlabki tarzda xabardor qilish sharti bilan va sabablarni ko'rsatish majburiyatlarisiz amalga oshiriladi.

24. Yakka tartibdagi mehnat shartnomasini yoki xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi fuqarolik-huquqiy shartnomasini yoxud shu kabi har qanday boshqa shartnomani tuzishdan bosh tortish maqsadida volontyorlik shartnomasini tuzish taqiqlanadi.

### **8-bob. Volontyorlar guruhi a'zolidan chiqish**

25. Volontyor o'zi istagan har qanday paytda volontyorlar guruhi a'zolidan chiqishi va u bilan tuzilgan shartnomani bekor qilishi mumkin.

Volontyor bu haqida vazirning Yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisini ikki kun oldin ogohlantirishi lozim.

26. Volontyorning volontyorlar guruhi a'zolidan chiqishi komissiya mas'ul kotibi tomonidan elektron platformada qayd etiladi.

Bunda volontyorning volontyorlar guruhida a'zoli davridagi faoliyati vazirning Yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi tomonidan 10 ballik tizimda baholanishi mumkin.

27. Quyidagi hollarda volontyorlik shartnomasi vazirlik tomonidan bekor qilinishi lozim:

volontyor volontyorlik shartnomasi shartlarini ikki yoki undan ortiq marta uzrli sabablarsiz buzganda;

volontyor sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

volontyorga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

volontyor vafot etganda yoki sudning uni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirganda;

volontyorning volontyorlik shartnomasi shartlarini bajarishiga monelik qiladigan boshqa hollarda.

28. Volontyor volontyorlik guruhidan chiqqan taqdirda, volontyorlik dasturida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun ushbu Nizomda belgilangan tartibda o'tkaziladigan tanlov orqali volontyorlar jalb etilishi mumkin.

### **9-bob. Yakunlovchi qoida**

29. Ushbu Nizom talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlik masalasi ko'rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining  
vazifalari va funksiyalarini volontyorlik orqali  
nisbatan samarali va tejamli shaklda amalga oshirish  
tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining vazifalari va funksiyalarini volontyorlik  
orqali nisbatan samarali va tejamli shaklda amalga oshirish  
SXEMASI**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Subyektlar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Muddatlar</b>
1-bosqich	Adliya vazirligi	Amalga oshirishga volontyorlar jalb etiladigan davlat organining vazifalari va funksiyalari ro‘yxati va volontyorlik dasturi adliya vazirining Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi tomonidan ishlab chiqilib, vazir tomonidan tasdiqlanadi.	Har yili yanvar oyida
2-bosqich	Adliya vazirligi	Rasmiy veb-saytda va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda volontyorlarning jalb etilishi bo‘yicha tanlov o‘tkazilishi haqida e‘lon berib boriladi. E‘londa volontyorlar jalb etiladigan faoliyat yo‘nalishi hamda talabgorlarga qo‘yiladigan talablar ko‘rsatiladi.	Zaruriyatga ko‘ra (tizimli ravishda)
3-bosqich	Tanlov komissiyasi	Suhbat asosida volontyorlikka nomzodlarni saralab oladi	Tanlov yakunlariga ko‘ra
4-bosqich	Adliya vazirligi	Volontyorlar jalb etiladigan faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lgan talabgorlar Adliya vazirligi huzuridagi volontyorlar guruhiga qabul qilinadi hamda komissiya mas‘ul kotibi tomonidan O‘zbekiston yoshlar portali negizida yaratilgan volontyorlar elektron platformasi orqali hisobga qo‘yiladi.	Suhbat yakuni bo‘yicha
5-bosqich	Adliya vazirligi yoki volontyor	Adliya vazirligi yoki volontyorning xohishiga ko‘ra volontyorlik shartnomasini bir tomonlama bekor qiladi.	Har qanday vaqtda ikkinchi tarafni shartnomani bekor qilish haqida yetti kun oldin ogohlantirgan holda
6-bosqich	Adliya vazirining Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi	Volontyorning volontyorlar guruhida a‘zoliigi davridagi faoliyatini 10 ballik tizimda baholaydi.	Volontyor volontyorlar guruhi a‘zoliigidan chiqqanidan so‘ng

**Adliya vazirligi faoliyatiga jalb etiladigan volontyorlarni  
saralab olish bo‘yicha tanlov komissiyasi**

**T A R K I B I**

1. N. Parpixo‘jayev - Adliya vazirining Yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi – *komissiya raisi*
2. Sh. Yuldasheva - Huquqiy targ‘ibot va ma‘rifat boshqarmasi boshlig‘i, *komissiya a‘zosi*
3. Sh. Kuchkarov - Inson resurslari boshqarmasi boshlig‘i, *komissiya a‘zosi*
4. A. Buriyev - Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi boshlig‘i, *komissiya a‘zosi*
5. A. Madaminov - Nodavlat notijorat tashkilotlar boshqarmasi boshlig‘i, *komissiya a‘zosi*
6. D.DJavliyev - Inson resurslari boshqarmasi katta maslahatchisi, *komissiya kotibi*

**Izoh:** Komissiyaga a‘zo bo‘lgan xodim boshqa lavozimga o‘tgan taqdirda, ushbu lavozimni egallagan yoki mansab yo‘riqnomasi bo‘yicha vazifasini bajaruvchi xodim komissiya a‘zosi hisoblanadi.